

“BOBURNOMA” DA FORSCHA SIFATLAR MASALASI

THE FORS ADJECTIVE QUESTION IN BABURNAME

Kuchkarova Shokhsanam

QDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti, Farg'ona viloyati Furqat tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Boburdan qolgan asarlarning eng yirigi va eng muhimi O'rta Osiyo, Avg'oniston, Hindiston, Eron xalqlari tarixi, etnografiyasi hamda geografiyasiga oid bir qancha nodir hamda qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Asarda, ijtimoiytabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Ushbu asar faqat yuqoridagi sohalarni emas balki, tilshunoslikka doir ilmiy qarashlarni ham o'zida mujassamlashtirgan. Biz ushbu maqolada" Boburnomadagi ana shu jihatlarni yoritish hamda ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.*

Tayanch tushunchalar: *"Boburnoma", memuar asar, jonli so'zlashuv tili, sifatlar.*

SUMMARY

Baburnama is the most important heritage of the literary remaining from Babur. This book contains rare and precious information about the history, geography, ethnography of the peoples of Central Asia, Afghanistan, India and Iran. The work contains accurate and still relevant historical and scientific information and scientifically based conclusions on social sciences, history, philosophy, jurisprudence, religious teachings, geography, natural science, mineralogy, agriculture, horticulture. It is the classics of Uzbek literature. This work is one of the most selected examples of Uzbek prose. We have studied the adjectives issue in Baburnama. Key words: Baburnama, masterpiece spoken language, adjectives.

Yozma manbalar tilini o'rganish mazkur tilda aloqa qiluvchi xalqning boshqa xalqlar bilan lisoniy aloqa munosabatlarini aniqlash tilshunoslikning muhim sohalaridan biri hisoblanadi.

Leksika esa tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta'sirlarni tezda o'zida ifodalaganidan xalqning madaniy, siyosiy, iqtisodiy hayotidagi o'zgarish va o'sishni belgilashda asos bo'la oladi.

"Har bir adabiy tilning hozirgi holatini to'g'ri belgilash, uning taraqqiyot yo'llarini aniqlashda til tarixining usullarini puxta o'rganish, ulardagi ayrim grammatik

kategoriyalarini hozirgi til elementlari bilan chog'ishtirib tekshirish o'zbek tilshunosligi va turkologiyasining muhim masalalaridan biridir"²⁸

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini o'qir ekanmiz uning asari tilida qo'llanilgan bir guruh so'zlar eski o'zbek adabiy tili yozma manbalarida

yoki ayrim turkiy tillarda uchrovchi so'zlar ekanligini ko'ramiz. Bu guruh so'zlarning ma'lum qismini, fe'l, ot, sifat va uning turli xil shakllari tashkil qiladi.

Umuman olganda, Bobur ikki tilli shoir sifatida buyuk asarlar yaratgan, shu tariqa butun jahonga tanilgan.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida fors adabiyoti va tili Movorounnahrda juda rivojlangan bo'lib, o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining tillariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmas edi. Shu sababli boshqa tillar singari o'zbek adabiy tili ham o'z lug'at tarkibini forscha so'zlar va lug'aviy birliklar hisobiga boyitdi. Jumladan, shunday ekan Boburning "Boburnoma" asari tilida ham forscha asliy va nisbiy sifatlar ancha-muncha uchraydi.

Fors tilida ham o'zbek tilidagi singari bo'land-baland, so'rx-qizil, tiz-o'tkir" kabi asliy sifatlar bilan bir qatorda yasama sifatlar ham bor.²⁹

Shunday ekan, o'zbek tili bilan fors tili sifatleri deyarli bir xil. O'zbek tilida asliy sifatlar daraja ko'rsatkichini qabul qiladi. Fors tilida ham xuddi shunday.

Bobur o'zining "Boburnoma" asarida asar tilining chiroyli va rang-barang hamda, go'zal chiqishi uchun o'zbek adabiy tili leksikasidagi asliy sifatlardan tashqari forscha sifatlardan ham ko'plab istifoda etgan va asar tilining ravon sodda, ta'sirchan hamda tushunarli bo'lishiga erishgan.

Muallif forscha asliy sifatlardan ko'proq "xo'b" so'zini qo'llagan. U asar matnida o'ttiz martadan ko'proq qo'llanilgan, biz bularning ayrimlarini misol tariqasida ko'rib chiqamiz: "Yana biri O'sh qasabasidur, Andijonning sharqi janubiy tarafidadur sharqqa moyil. Andijon to'rt yig'och yo'ldur, havosi xo'b va oqar suyi farovondur". (6-bet). "Siyuq ilmini xo'b bilur edi". (26-bet). "Atrofida to'rt xo'b ulang voqe bo'lubdur". (11-bet). "Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishi kim bor budur, fe'lvoqe xo'b bordur" (164-bet). "Go'rasining murabbosi ham xo'b bo'ludur". (260-bet)

Yuqorida asardan misol tariqasida keltirilgan gaplarning birinchisida ham boshqa gaplar singari, "xo'b" so'zi ishlatilgan. Bu so'z asli forscha bo'lib "yaxshi" degan ma'noni ifodalaydi. "Yaxshi" so'zi o'zbek adabiy tilida narsaning xususiyatini bildiruvchi asliy sifatlar sirasiga kiradi. Fors tilida ham "xo'b" so'zi xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan asliy sifat hisoblanadi. Mazkur gapda "xo'b" so'zi so'z turkumi jihatidan asliy sifat bo'lsa ham gap bo'lagi jihatidan kesim vazifasida kelmoqda. Keyingi gapdagi "xo'b" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak so'z turkum jihatidan sifat bo'lsa ham gap bo'lagi vazifasi jihatidan ravish holi vazifasida kelgan. "Siyuq ilmini xo'b bilur edi". Ma'nosi: Yozuv san'atini juda yaxshi bilar edi. Demak, ushbu gapdagi "xo'b bilur edi" jumlasiga "qay tarzda" kabi so'roq

²⁸ Muxtorov Z. Rajabov N. O'zbek tili tarixini yanada chuqur o'rganaylik; O'zbek tili va adabiyoti 1960. 6-bet.

²⁹ Xalilov X. Fors tili. T.; 1992-yil. 136-bet.

berish mumkin. Navbatdagi iqtibosda "xo' b o' lang voqe bo' lubdur" kabi jumlar ishlatilgan. Ushbu jumalarda "xo' b o' lang" sifatlovchi aniqlovchi so' z birikmasi bo' lib, "xo' b" sifati "o' lang-o' tloq" so' zi xususiyatini aniqlab kelmoqda. Demak, mazkur gapda "xo' b" sifati so' z turkumi jihatidan ham gap bo' lagi jihatidan ham o' z o' rni va vazifasida kelgan. Keyingi iqtibosda ham "xo' b-yaxshi " so' zi gaplarda fe' llarga bog' lanib kelib, so' z turkumi jihatidan sifat bo' lib gap bo' lagi jihatidan fe' lga bog' lanib holat ravishi vazifasida kelgan.

Aniqlovchi birikmalar tarkibida forscha so' z shakli berilgan. Aniqlovchi birikmalar tarkibida asosan sifatdosh, sifat, kabi so' zlar qo' llangan. Masalan: Shaxrisabz {yashil shahar}, Pushtai ko' hkak {tog' chaning orqasi}{44,45,46,-bet}, Pushtai Aysh {61-bet}, Dunyoyi foniy {13-bet}, Darbandi Ohanin {113-bet} {Temirli yopiladigan eshik}, Lolayi gulboy {124-bet}, Bog' i nav {170-bet}, Bog' i Jaxon aro {172-bet}, Bog' i nazargoh, Bog' i poshog' arv {175-bet}, Bog' i Kalon {katta bog' } {125-bet}, Olami bevafo {356-bet} kabi aniqlovchili birikmalarda sifatga doir so' zlar ishlatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bobur o' zining "Boburnoma" asari tilida o' zбек tili asliy sifatlari bilan bir qatorda ularga sinonim bo' lgan forscha asliy sifatlardan ham o' z o' rnida foydalangan va asar tilining chiroyli, rang-barang ta' sirchan chiqishini ta' minlagan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurashid Abdug' afurov. [O' zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
3. Boburnoma, T., 1960;
4. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug' at. (1992). Toshkent, "Fan";
5. O' zбек tilining izohli lug' ati. Toshkent, O' zME
6. Baburname, T., 1993.
7. Xalilov X. Fors tili. T., 1992-yil.